




# SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## SAMARQAND VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI



2024-yil  
yanvar-iyul

*Dastlabki ma'lumotlar*

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-iyundagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

## Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

(2024-yil yanvar-iyul)

75,8 %



**Jami korxonalarda xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar ulushi**

4 463,3  
ming so'm




**Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi**

64,6 %




**Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi**




**Xizmatlar sohasi bu** – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ko'rsatishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.


## Soni, birlikda




## Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar (1-avgust holatiga ko'ra)



## Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (yanvar-iyul)



## Soni, birlikda



## Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari

(1-avgust holatiga ko'ra)

72,0 %



2024-y.

Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soniga nisbatan ulushi

2020-y.



59,3 %

Soni, birlikda

2024-y.

24 910

2023-y.

25 504

2022-y.

29 554

2021-y.

23 600

2020-y.

17 651

Soni, birlikda

2024-y.

3 149

2023-y.

3 467

2022-y.

5 156

2021-y.

3 891

2020-y.

2 848

## Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari

(yanvar-iyul)

2024-y.

69,1 %



Jami yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soniga nisbatan ulushi


2020-y.

58,6 %




## Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi <sup>1)</sup>

(yanvar-iyul)



## Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissasi (2024-yil yanvar-iyul)




<sup>1)</sup> Bu yerda va keyingi o'rinlarda 2020-2023-yillar uchun aniqlik kiritilgan ma'lumotlar keltirilgan

## Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024-yil yanvar-iyul)

Hududlar nomi	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>18 874,4</b>	<b>100,0</b>	<b>112,1</b>
Samarqand sh.	8 062,5	42,7	115,9
Kattaqo'rg'on sh.	521,6	2,8	111,9
Oqdaryo	612,8	3,2	107,5
Bulung'ur	504,3	2,7	107,6
Jomboy	791,3	4,2	107,4
Ishtixon	655,0	3,5	107,9
Kattaqo'rg'on	664,4	3,5	107,6
Qo'shrabot	352,4	1,9	108,0
Narpay	582,6	3,1	107,9
Payariq	788,9	4,2	107,5
Pastdarg'om	1 281,8	6,8	109,6
Paxtachi	360,2	1,9	107,8
Samarqand	1 304,9	6,9	116,4
Nurobod	362,3	1,9	108,0
Urgut	1 268,5	6,7	108,7
Toyloq	760,9	4,0	110,0

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi** iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati (narxi)ni aks ettiradi.

## Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-iyul)



## Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2024-yil yanvar-iyul)

Hudud nomi	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati
Samarqand sh.	13 714,0	113,5 %
Kattaqo'rg'on sh.	5 485,1	110,4 %
Samarqand	4 757,1	113,9 %
Jomboy	4 151,7	104,8 %
Oqdaryo	3 519,8	105,0 %
Toyloq	3 423,1	107,3 %
Pastdarg'om	3 328,4	107,2 %
Payariq	2 870,9	105,0 %
Narpay	2 551,9	106,0 %
Bulung'ur	2 481,6	105,2 %
Qo'shrabot	2 473,2	105,9 %
Ishtixon	2 362,0	105,6 %
Paxtachi	2 357,6	106,2 %
Urgut	2 256,2	106,0 %
Kattaqo'rg'on	2 251,5	105,4 %
Nurobod	2 220,1	105,9 %

## Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2024-yil yanvar-iyul)

Xizmat turlarining nomi	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>18 874,4</b>	<b>100,0</b>	<b>112,1</b>
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	938,3	5,0	116,4
Moliyaviy xizmatlar	3 063,2	16,2	112,3
Transport xizmatlari	4 155,9	22,0	111,8
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	3 712,1	19,7	111,2
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	984,3	5,2	105,4
Savdo xizmatlari	4 930,1	26,1	114,2
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	462,3	2,5	115,3
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	941,9	5,0	109,3
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	436,9	2,3	124,8
Ijara xizmatlari	558,6	3,0	110,3
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	554,0	2,9	109,9
Shaxsiy xizmatlar	853,1	4,5	109,4
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	269,9	1,4	106,0
Boshqa xizmatlar	725,9	3,9	105,0

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha Mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichi (MST) ga ko'ra muvofiqlashtirildi.




## Moliyaviy xizmatlar dinamikasi (yanvar-iyul)



## Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar (2024-yil yanvar-iyul, mlrd so'mda)

Hududlar	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sish sur'ati, % da
Samarqand sh.	1 476,7	117,7
Kattaqo'rg'on sh.	114,9	111,6
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	47,0	102,3
Bulung'ur	81,5	101,9
Jomboy	101,7	117,6
Ishtixon	76,2	106,2
Kattaqo'rg'on	57,0	100,2
Qo'shrabot	23,9	103,3
Narpay	43,8	100,7
Payariq	209,0	104,6
Pastdarg'om	266,2	105,5
Paxtachi	31,6	101,6
Samarqand	58,3	108,2
Nurobod	47,8	101,1
Urgut	313,8	111,7
Toyloq	113,8	116,3

## Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2024-yil yanvar-iyul)



Moliyaviy xizmatlar tarkibidagi sug'urta va nafaqa xizmatlaridan tashqari xizmatlarning ulushi, **2024-yil yanvar-iyulida 93,5** foizni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Samarqand shahrining ulushi **48,2** foizni yoki **1 476,7** mlrd so'mni tashkil etdi.


**2023-yil yanvar-iyul** oylariga nisbatan Samarqand shahrida yuqori o'sish sur'ati **117,7** foizni tashkil etdi.

**2024-yil yanvar-iyul** oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining deyarli to'rt dan uch qismini, ya'ni **71,0** foizni tashkil etdi.



## Savdo xizmatlari dinamikasi

(yanvar-iyul)



## Hududlar kesimida savdo xizmatlari

(2024-yil yanvar-iyul)




Hududlar	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sish sur'ati, % da
<b>Samarqand sh.</b>	<b>1 860,8</b>	<b>127,1</b>
Kattaqo'rg'on sh.	132,1	107,0
<i>tumanlar:</i>		
<b>Oqdaryo</b>	<b>213,8</b>	<b>105,2</b>
Bulung'ur	140,2	109,2
<b>Jomboy</b>	<b>260,9</b>	<b>100,7</b>
Ishtixon	199,0	107,1
<b>Kattaqo'rg'on</b>	<b>207,0</b>	<b>107,1</b>
Qo'shrabot	98,4	103,8
<b>Narpay</b>	<b>172,0</b>	<b>105,0</b>
Payariq	196,8	108,6
<b>Pastdarg'om</b>	<b>357,2</b>	<b>114,3</b>
Paxtachi	96,5	105,8
<b>Samarqand</b>	<b>405,0</b>	<b>112,3</b>
Nurobod	96,2	109,8
<b>Urgut</b>	<b>282,3</b>	<b>104,7</b>
Toyloq	211,9	105,7

## Transport xizmatlari dinamikasi (yanvar-iyul)

Transport xizmatlari-ning umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **89,3 foiz**.

Samarqand shahrida transport xizmatlari hajmi **1 424,7** mlrd so'mni tashkil etgan. Mazkur hududda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **117,7 foizni** tashkil etgan.




## Hududlar kesimida transport xizmatlari (2024-yil yanvar-iyul)

Hududlar	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sish sur'ati, % da
Samarqand sh.	1 424,7	117,7
Kattaqo'rg'on sh.	122,3	120,6
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	162,6	108,4
Bulung'ur	116,9	108,2
Jomboy	219,1	108,8
Ishtixon	179,5	108,1
Kattaqo'rg'on	185,4	108,0
Qo'shrabot	98,4	107,9
Narpay	174,4	108,7
Payariq	186,1	108,9
Pastdarg'om	291,0	108,2
Paxtachi	99,7	107,9
Samarqand	316,6	108,7
Nurobod	84,2	107,7
Urgut	306,5	108,7
Toyloq	188,5	108,8

## Avtomobil transporti xizmatlari dinamikasi (yanvar-iyul)

2024-yilning yanvar-iyul oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3 712,1** mlrd so'mga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **19,7 %** ni tashkil etdi.



Hududlar	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sish sur'ati, % da
Samarqand sh.	1 032,3	112,7
Kattaqo'rg'on sh.	119,9	122,7
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	161,4	110,1
Bulung'ur	115,5	109,9
Jomboy	216,8	110,4
Ishtixon	177,9	109,9
Kattaqo'rg'on	181,6	109,7
Qo'shrabot	95,4	109,5
Narpay	172,2	110,4
Payariq	181,4	110,5
Pastdarg'om	284,5	109,5
Paxtachi	93,5	109,4
Samarqand	309,6	110,4
Nurobod	83,8	109,5
Urgut	300,5	110,4
Toyloq	185,8	110,5

## Hududlar kesimida avtomobil transporti xizmatlari

(2024-yil yanvar-iyul)




2024-yil yanvar-iyul oylarida yo'lovchi avtomobil transporti xizmatlari ulushi **65,0** foizga yetdi.

Avtomobil transporti xizmatlarining umumiy hajmida katta qismi taksi xizmatlariga to'g'ri keladi – **52,5 %**.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi <sup>1)</sup> (yanvar-iyul)



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari-ning umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. 2024-yilning yanvar-iyul oylaridagi ulushi 86,2 % ni tashkil etdi.



## Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2024-yil yanvar-iyul)

Hududlar	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sish sur'ati, % da
Samarqand sh.	298,4	133,5
Kattaqo'rg'on sh.	24,6	111,0
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	34,1	108,7
Bulung'ur	37,8	110,4
Jomboy	33,5	107,8
Ishtixon	45,3	107,0
Kattaqo'rg'on	48,3	107,9
Qo'shrabot	24,7	114,3
Narpay	35,8	110,1
Payariq	50,1	109,4
Pastdarg'om	65,2	108,3
Paxtachi	26,2	109,9
Samarqand	63,0	115,4
Nurobod	27,5	108,4
Urgut	85,0	109,8
Toyloq	38,8	110,5


<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

 Hajmi, mlrd so'mda

 O'sishi

## Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(yanvar-iyul)



Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2024-yil yanvar-iyul** oylaridagi ulushi **71,8** foizni tashkil etdi.



**2024-yilning yanvar-iyul** oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **941,9** mlrd. so'mga yetib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **109,3 %** ni tashkil etdi.


## Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar

(2024-yil yanvar-iyul, mlrd so'mda)

Hududlar	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sish sur'ati, % da
Samarqand sh.	774,2	108,1
Kattaqo'rg'on sh.	13,3	110,2
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	19,1	119,4
Bulung'ur	11,2	113,5
Jomboy	8,6	117,5
Ishtixon	12,2	111,4
Kattaqo'rg'on	10,0	115,7
Qo'shrabot	5,3	116,2
Narpay	7,4	117,3
Payariq	10,7	114,9
Pastdarg'om	17,8	114,8
Paxtachi	6,2	113,6
Samarqand	17,0	116,5
Nurobod	4,8	114,2
Urgut	15,0	116,0
Toyloq	9,1	117,1

## Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-iyul)

2024-yilning yanvar-iyul oylarida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi **436,9** mlrd. so'mni yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **2,3 %** ni tashkil etdi.




## Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2024-yil yanvar-iyul)

Hududlar	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sish sur'ati, % da
Samarqand sh.	306,8	132,1
Kattaqo'rg'on sh.	6,6	111,6
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	5,9	109,7
Bulung'ur	7,4	108,2
Jomboy	6,8	112,0
Ishtixon	6,4	109,7
Kattaqo'rg'on	11,9	109,6
Qo'shrabot	3,6	107,3
Narpay	5,6	104,9
Payariq	6,7	108,0
Pastdarg'om	14,0	119,8
Paxtachi	2,8	114,2
Samarqand	14,4	109,9
Nurobod	20,5	109,1
Urgut	11,8	110,1
Toyloq	5,8	108,0

## Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi <sup>1)</sup>

(yanvar-iyul)



■ Hajmi, mlrd. so'mda

## Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar


(2024-yil yanvar-iyul)

Hududlar	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sish sur'ati, % da
Samarqand sh.	173,3	120,7
Kattaqo'rg'on sh.	13,6	107,1
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	14,6	112,6
Bulung'ur	12,0	112,6
Jomboy	17,2	112,8
Ishtixon	16,9	112,1
Kattaqo'rg'on	18,5	111,2
Qo'shrabot		112,3
Narpay	15,5	112,5
Payariq	14,8	112,6
Pastdarg'om	32,5	113,3
Paxtachi	116,9	112,3
Samarqand	38,6	115,3
Nurobod	12,2	112,4
Urgut	36,8	109,9
Toyloq	17,3	112,8



## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi <sup>1)</sup> (yanvar-iyul)

**2024-yil yanvar-iyul** oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning jami xizmatlar hajmidagi ulushi **5,1 %** ni tashkil etdi. Ularning tarkibida oziq-ovqat va ichim-liklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ustunlik qildi – **67,1** foiz.




## Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2024-yil yanvar-iyul)

Hududlar	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sish sur'ati, % da
Samarqand sh.	563,1	92,5
Kattaqo'rg'on sh.	20,2	115,9
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	7,8	114,0
Bulung'ur	16,3	106,5
Jomboy	17,1	117,5
Ishtixon	4,9	116,2
Kattaqo'rg'on	9,3	116,2
Qo'shrabot	8,4	116,7
Narpay	9,7	116,0
Payariq	7,3	115,8
Pastdarg'om	50,2	115,3
Paxtachi	7,6	117,5
Samarqand	186,0	154,5
Nurobod	9,4	116,7
Urgut	15,9	116,3
Toyloq	51,0	113,9

## Ijara xizmatlari dinamikasi <sup>1)</sup>

(yanvar-iyul)



■ Hajmi, mlrd. so'mda

■ O'sishi (kamayishi)

## Hududlar kesimida ijara xizmatlari (2024-yil yanvar-iyul, mlrd so'mda)


Hududlar	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sish sur'ati, % da
Samarqand sh.	145,8	113,0
Kattaqo'rg'on sh.	16,0	109,5
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	29,8	109,5
Bulung'ur	15,6	107,9
Jomboy	30,6	109,6
Ishtixon	27,7	108,5
Kattaqo'rg'on	26,8	108,2
Qo'shrabot	19,7	111,0
Narpay	26,5	109,4
Payariq	26,2	109,0
Pastdarg'om	47,2	111,1
Paxtachi	14,2	108,0
Samarqand	45,9	110,1
Nurobod	13,5	107,7
Urgut	43,8	109,0
Toyloq	29,2	109,5



**2024-yilning yanvar-iyul** oylarida ijara xizmatlari hajmi **558,6** mlrd. so'mga yetdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida yengil avtomobillar va yengil avtotransport vositalarining ijarasi bo'yicha xizmatlarning salmoqli qismi – **56,8** foizni tashkil etadi.

## Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi <sup>1)</sup> (yanvar-iyul)




Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining 25,2 foizini tashkil etadi.

## Hududlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2024-yil yanvar-iyul)

Hududlar	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sish sur'ati, % da
Samarqand sh.	147,7	109,6
Kattaqo'rg'on sh.	15,9	110,0
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	24,7	109,6
Bulung'ur	16,8	109,7
Jomboy	29,6	110,1
Ishtixon	27,7	109,5
Kattaqo'rg'on	28,5	109,6
Qo'shrabot	16,2	109,6
Narpay	26,6	110,2
Payariq	25,7	110,1
Pastdarg'om	46,0	109,9
Paxtachi	14,5	109,2
Samarqand	48,3	111,2
Nurobod	13,3	109,1
Urgut	43,3	110,4
Toyloq	29,3	110,3

## Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-iyul)



**2020-yilning yanvar-iyul** oylariga nisbatan joriy yilning tahlil qilinayotgan davrida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **110,2** mlrd. so'mga oshib, **269,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.

**Moliyaviy xizmatlar hajmi** moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

**Transport xizmatlarining hajmi** amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

**Avtomobil transporti xizmatlariga** temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

**Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari** hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi** amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

**“Ta’lim” seksiyasi** kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi. **Ta'lim sohasidagi faoliyatni** amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi**, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

**Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni** ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

**Ijara xizmatlari** bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarini operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

**Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi** bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

**Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar** hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.

**Huquq va buxgalteriya sohasidagi xizmatlar hajmi** – bu huquq sohasidagi bozor xizmatlaridan, mijozlarga ularning qonuniy huquq va majburiyatlari hamda boshqa huquqiy xizmatlar bo'yicha maslahat berishdan, shuningdek buxgalteriya hisobini yuritishdan, buxgalterlik hisobi va audit, soliq deklaratsiyalarini tayyorlashdan olingan daromadlar miqdori demakdir.

**Yuridik xizmatlar hajmi** fuqarolik, jinoiy ishlarda, mehnat tortishuvlarida maslahat xizmati ko'rsatish va vakillik qilishni, shuningdek, yuridik hujjatlarni tayyorlash, sud ijrochilari, hakamlik sudyalari, inspektorlar va sudyalarning xizmatlari, sudlarda va boshqa sud organlarida advokatlar kollegiyasining a'zolari bo'lgan yoki ularning nazorati ostidagi shaxslar tomonidan yuridik vakillik va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari narxini o'z ichiga oladi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

Tel.: 66-235-79-35